“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=362

2026-yil
4-son
aprel
ISSN 3093-8546



O‘zbekistonda yuridik shaxslarni tugatish to‘g‘risidagi qonunchilikning rivojlanish bosqichlari

Ramziddin Raxmonov,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti
e-mail: raxmonovramziddin1@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxslarni tugatish institutining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Tadqiqotda tugatish jarayonining huquqiy mohiyati, uning iqtisodiy muvozanatni ta’minlashdagi o‘rni hamda kreditorlar huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, milliy qonunchilikning tarixiy rivojlanish bosqichlari, zamonaviy islohotlar va raqamlashtirish jarayonlari ko‘rib chiqilgan. Muallif tomonidan amaldagi huquqiy mexanizmlarning muammolari aniqlanib, ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar berilgan.

Калит сўзлар. yuridik shaxs, tugatish, kreditor, huquqiy institut, bankrotlik, to‘lovga qobiliyatsizlik, iqtisodiy islohotlar, raqamlashtirish, fuqarolik huquqi, tugatish jarayoni

Аннотация. В данной статье анализируются этапы становления и развития института ликвидации юридических лиц в Республике Узбекистан. Рассматриваются правовая сущность процесса ликвидации, его роль в обеспечении экономического баланса и защите прав кредиторов. Также освещаются исторические этапы развития национального законодательства, современные реформы и процессы цифровизации. Автор выявляет существующие проблемы правовых механизмов и предлагает научно обоснованные рекомендации по их совершенствованию.

Ключевые слова. юридическое лицо, ликвидация, кредитор, правовой институт, банкротство, неплатежеспособность, экономические реформы, цифровизация, гражданское право, процесс ликвидации

Annotation. This article analyzes the formation and development stages of the legal institution of liquidation of legal entities in the Republic of Uzbekistan. It examines the legal nature of the liquidation process, its role in maintaining economic balance, and its importance in protecting creditors' rights. The study also explores the historical evolution of national legislation, recent reforms, and digitalization processes. The author identifies existing

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

problems in the current legal mechanisms and provides scientifically grounded recommendations for their improvement.

Keywords. legal entity, liquidation, creditor, legal institution, bankruptcy, insolvency, economic reforms, digitalization, civil law, liquidation process

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yuridik shaxslarning tashkil etilishi bilan bir qatorda ularning faoliyatini tugatish masalasi ham muhim huquqiy institut sifatida namoyon bo‘ladi. Yuridik shaxslarni tugatish jarayoni iqtisodiy muvozanatni ta’minlash, samarasiz faoliyat yuritayotgan subyektlarni iqtisodiy muomaladan chiqarish hamda kreditorlar va boshqa manfaatdor shaxslarning huquqlarini himoya qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois mazkur institutning huquqiy asoslari va uning rivojlanish bosqichlarini ilmiy jihatdan o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

Zamonaviy fuqarolik muomalasida yuridik shaxslarning tashkil etilishi kabi, ularning faoliyatini to‘xtatish jarayoni ham murakkab huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Bu jarayon shunchaki tadbirkorlikning yakunlanishi emas, balki barcha mavjud majburiyatlarning qat’iy tartibda hal etilishini taqozo etadi. Mazkur masalaning huquqiy mohiyati haqida gap ketganda, quyidagilarni ta’kidlash o‘rinlidir: “Yuridik shaxs tugatilganda esa yuridik shaxs o‘z-o‘zidan huquq subyekti sifatida barham topadi vas hu bilan birgalikda uning huquq va burchlari ham tugaydi. Shuning uchun ham korxonani tugatishda kreditorlarning huquq va burchlarini ta’minlashga alohida e’tibor qaratish talab etiladi”[1:311].

Ushbu fikrlardan ko‘rinib turibdiki, yuridik shaxsning barham topishi huquqiy vorislikni nazarda tutmaydi (qayta tashkil etishdan farqli o‘laroq). Aynan shu sababli, qonunchilikda tugatish jarayoni ustidan qat’iy nazorat o‘rnatilgan. Zero, subyektning tugatilishi bilan uning barcha majburiyatlari ham “yo‘qqa chiqishi” kreditorlar manfaatiga zarar yetkazmasligi lozim.

Yuridik shaxslarni tugatish kreditorlar talabini aniqlash va ularni ta’minlashga qaratilganligi tufayli uzoq muddatli jarayon hisoblanadi. Tugatish davrini uzoq muddatligining asosiy sababi – kreditorlar huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liqdir[2:728].

Demak, tugatish jarayonidagi asosiy maqsad – nafaqat korxonani davlat reyestridan chiqarish, balki uning uchinchi shaxslar oldidagi barcha qarzdorliklarini adolatli va qonuniy hal etish kafolatini yaratishdir.

O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxslarni tugatish bilan bog‘liq munosabatlar mustaqillikdan so‘ng bosqichma-bosqich shakllanib, mamlakatda olib borilgan iqtisodiy va huquqiy islohotlar ta’sirida takomillashib bordi. Xususan, fuqarolik qonunchiligi, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar hamda bankrotlik to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu sohaning asosiy huquqiy negizini tashkil etadi. Har bir tarixiy bosqichda yuridik shaxslarni tugatish tartibi, asoslari va mexanizmlarida muayyan o‘zgarishlar kuzatilgan bo‘lib, ular mamlakat iqtisodiy siyosati va huquqiy tizimining rivojlanish darajasini aks ettiradi.

Mazkur ilmiy maqolaning maqsadi O‘zbekistonda yuridik shaxslarni tugatish to‘g‘risidagi qonunchilikning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tizimli tahlil qilish, mavjud huquqiy mexanizmlarning o‘ziga xos jihatlarini ochib berish hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, tadqiqot doirasida milliy qonunchilikning xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashuvi, zamonaviy tendensiyalar va istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari ham ko‘rib chiqiladi.

Hozirgi kunda yuridik shaxslarni tugatish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlari bir tizimga solinmagan va ularni amaliyotga tadbiq etishning izchil mexanizmi ishlab chiqilmagan[3:288].

Ushbu masalalarni chuqur o‘rganish nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyot uchun ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u iqtisodiy muhitning barqarorligini ta’minlash va huquqiy tizim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxslarni tugatish bilan bog‘liq qonunchilik mustaqillikdan so‘ng bosqichma-bosqich rivojlanib, iqtisodiy islohotlar va huquqiy tizim takomillashuvi bilan uzviy bog‘liq holda shakllandi. Ushbu jarayonni shartli ravishda quyidagi asosiy bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Boshlang‘ich shakllanish bosqichi (1991–2000-yillar)

Mazkur davrda bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni boshlanib, yangi xo‘jalik yuritish shakllari paydo bo‘ldi. Yuridik shaxslarni tugatish masalalari asosan umumiy normalar bilan tartibga solinib, alohida rivojlangan huquqiy institut sifatida yetarli darajada shakllanmagan edi. Shu bilan birga, ushbu davrda huquqiy asoslar yaratildi. Xususan, 1996-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi yuridik shaxslarni tugatishning umumiy qoidalarini belgilab berdi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasidagi Korxonalar to‘g‘risida”gi qonuni (Hujjat kuchini yo‘qotgan 20.01.2001) va Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-iyuldagi “Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o‘zlarining ustav jamg‘armalarini shakllantirmagan korxonalarni tugatish tartibi to‘g‘risida”gi 327-qarori (Hujjat kuchini yo‘qotgan 01.01.2020) ham xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini tugatishning dastlabki asoslarini mustahkamladi.

2. Institutsional rivojlanish bosqichi (2000–2016-yillar)

Bu davrda yuridik shaxslarni tugatish bilan bog‘liq munosabatlar yanada aniq va tizimli tartibga solina boshladi. Jumladan, 2003-yilda yangi tahrirda qabul qilingan “Bankrotlik to‘g‘risida”gi qonun (Hujjat kuchini yo‘qotgan 13.04.2022) iqtisodiy nochor korxonalarni tugatishning alohida mexanizmini belgilab berdi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 27-aprel kunidagi “Tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to‘xtatish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 630-qarori (Hujjat kuchini yo‘qotgan 01.01.2020) Fuqarolik kodeksiga kiritilgan o‘zgartirishlar orqali tugatishning ixtiyoriy va majburiy shakllari, kreditorlar talablarini qondirish tartibi yanada takomillashtirildi.

3. Liberallashtirish va soddalashtirish bosqichi (2017–2020-yillar)

Mazkur bosqichda tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi “Tadbirkorlik subyektlarini tugatish tartib-taomillarini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5739-farmoni tugatish jarayonlarini sezilarli darajada yengillashtirdi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-avgust kunidagi “Tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to‘xtatish tartibi hamda Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan tadbirkorlik

subyektlarini davlat reyestridan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 704-qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-sentabr kunidagi “Past rentabelli va faoliyat yuritmayotgan tashkilotlarni jadal realizatsiya qilish va tugatish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 800-qarori asosida tugatish jarayonlarini elektron shaklda amalga oshirish imkoniyati yaratildi. Ushbu davrda ortiqcha byurokratik talablar qisqartirilib, tadbirkorlar uchun qulay huquqiy muhit shakllantirildi.

4. Zamonaviy rivojlanish va raqamlashtirish bosqichi (2020-yildan hozirgi davrgacha)

So‘nggi yillarda yuridik shaxslarni tugatish jarayonlarini yanada takomillashtirish va raqamlashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-apreldagi “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi 763-qonuni qabul qilinib, unda qarzdor va kreditorlar manfaatlari muvozanatini ta’minlashga qaratilgan zamonaviy normalar belgilandi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-yanvardagi “Davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 5930-farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi qarori bilan tasdiqlangan Tadbirkorlik subyektlari bo‘lmagan ayrim yuridik shaxslarni tugatish tartibi to‘g‘risidagi nizom asosida tugatish jarayonlari to‘liq elektron tizim orqali amalga oshirilmoqda.

Shu tariqa, O‘zbekistonda yuridik shaxslarni tugatish to‘g‘risidagi qonunchilik oddiy va umumiy normalardan zamonaviy, raqamlashtirilgan va samarali huquqiy tizimga qadar rivojlanib bordi. Mazkur bosqichlarning izchil tahlili ushbu institutning bugungi holatini chuqur anglash hamda uni yanada takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi.

Foydalanilgan manbalar

1. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism. Mualliflar jamoasi. O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist, prof. O.Oqyulovning umumiy tahriri ostida. – T.: TDYU nashriyoti, 2017. – 311 bet.

2. Fuqarolik huquqiga kirish: darslik / O.Oqyulov, J.I.Yuldashev, N.F. Imomov. – T.: TDYU nashriyoti, 2025. – 728 b.

3. Topildiyev B. “Fuqarolik huquqi”. I qism. “Universitet”. – T.: 2014. -288 b.